

2017 yil yanvar-iyul



Viloyatda tashqi savdo aylanmasi 2017 yil yanvar—iyul oylarida 581,4 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 126,4mln. AQSh dollarini va import 455,0 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosı – 328,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Oxirgi yillarda viloyatning eksport tarkibida tovarlar va xizmatlar guruhları bo'yicha o'sish kuzatilmoqda.

Mashina va asbob-uskunalarning eksporti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2.1 martaga oshib, xizmatlar eksporti esa 26,4 foizga o'sdi.

Meva-sabzavot mahsulotları eksporti 42,9 mln. AQSh dollari tashkil etib, oziq-ovqat mahsulotları eksport hajmining 68,0 foizini tashkil etdi.

Viloyatda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining tashqi savdo aylanmasi 2017 yil yanvar—iyul oylarida 386,7 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 105,6 mln. AQSh dollarini va import 281,2 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.






Eksport va importda sohalar ulushlari

Import tarkibining umumiy hajmidan 46,2 foizini mashina va asbob-uskunalar, 27,7 foizini kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar tashkil qiladi.

Eksport tarkibining umumiy hajmidan 12,2 foizini xizmatlar eksporti tashkil qilib, bunda transport xizmati 32,2 foizni va safarlar xizmati 29,5 foizni tashkil etdi.

Importda eng katta ulushni, ya'ni 46,2 foizni mashina va asbob-uskunalar importi egallagan. Eksportda esa bu soha 5,3 foizlik natija bilan qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining eksportdagi ijobiy ko'rsatkichi (49,9 foiz) eksport hajmining deyarli yarmini tashkil etdi.




2017 yilning yanvar-iyul oylarida tashqi savdo aylanmasi saldosi –581,7 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Shundan MDH davlatlari bilan –35,3 mln. AQSh dollarini va boshqa davlatlar bilan –546,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

2017 yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi quyidagi ma'lumotlarda tavsiflanadi:

	<i>mln.dollar</i>	<i>o'tgan yilga nisbatan, %</i>	<i>umumiy hajmga nisbatan, %</i>
Eksport	126,4	114,7	100
paxta tolasi	1,7	-	1,3
oziq-ovqat mahsulotlari	63,1	99,3	49,9
kimyo mahsulotlari va undan tayyolagan buyumlar	3,7	104,8	3,0
qora va rangli metallar	3,4	31,2	2,7
mashina va asbob-uskunalar	6,6	2,1 m	5,3
xizmatlar	15,4	126,4	12,2
boshqalar	32,4	151,5	25,6
Import	455,0	119,1	100
oziq-ovqat mahsulotlari	51,9	110,6	11,4
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	125,9	97,9	27,7
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	1,5	89,7	0,3
qora va rangli metallar	15,7	118,3	3,5
mashina va asbob-uskunalar	210,1	132,4	46,2
xizmatlar	2,5	79,4	0,5
boshqalar	47,3	161,6	10,4


2017 yilning yanvar-iyul oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda

MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari viloyatning tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlari hisoblanib, viloyatning jami tashqi savdo aylanmasidagi ushbu davlatlar ulushi 30,1 foizni tashkil qildi. Boshqa davlatlar ulushi esa 69,9 foizni tashkil qilib, ular orasiga Xitoy, Turkiya, Janubiy Koreya, Germaniya, Afg'oniston, Braziliya, Hindiston, Eron, Latviya, Litva, Fransiya, AQSh, Italiya davlatlarini kiritish mumkin.




Jami eksport-import hajmida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, (foizda)

Eksport



Import




Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmi 42,9 mln. AQSh dollarini, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 75,9 foizni tashkil qildi. Meva - sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida 35,6 foizini sabzavotlar (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 67,4 foizini tashkil qildi), 31,2 foizini mevalar (73,0 foizini), 32,7 foizini uzum (97,3 foizini) va meva-sabzavot mahsulotlarining umumiy hajmidan 50,3 foizini qayta ishlangan meva va sabzavot mahsulotlari (109,3 foizni) tashkil qildi.




Eksport hajmida asosiy hamkorlar Qozog'iston (umumiy hajmdan 29,2 foiz), Rossiya (11,8 foiz), Iroq (6,3 foiz), Xitoy (7,4 foiz), Turkiya (14,5 foiz), Belarus(3,5 foiz) va Eron Islom Respublika(3,8 foiz)lari hisoblanadi.

Meva- sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida davlatlar ulushi, foizda



Eksport tarkibining umumiy hajmidan 33,9 foizini meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti tashkil qildi.



Meva-sabzavot mahsulotlari eksportining miqdori

Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti miqdori 57,6 ming tonnani, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 85,4 foizni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlarining umumiy eksport hajmidan mevalarning miqdori 14,7 ming tonnani tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 93,6 foizni, sabzavotlar 24,6 ming tonnani (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 65,6 foizni), **uzum 18,1 ming tonnani (141,3 foizni), yer yong'oq 176,1 tonnani (13,5 foizni), qovun va tarvuz 81,5 tonnani (49,8 foizni)** tashkil qildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi

Tel: 71-230-85-23

66-235-65-80